

**SPORTNING MAMLAKAT IQTISODIYOTINI YUKSALTIRISHDAGI
AHAMIYATI.**

Abdulaxatov Elyor Abdujalil o'g'li,

Alfraganus universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiysi doirasida sport sohasining innovatsion yo'nalishda rivojlanishi, uning iqtisodiyotdagi o'rni va ahmiyati yoritilgan. Maqolada sport tashkilotlarini boshqarishdagi zamonaviy yondashuvlar, tadbirkorlik va moliyalashtirish mexanizmlari, davlat va xususiy sektor hamkorligining ahmiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Sport sohasi, iqtisodiy o'sish, bozor munosabatlari, investitsiya, bandlik, sport infratuzilmasi, turizm, sport tadbirlari, xususiy sektor, innovatsion rivojlanish, tadbirkorlik faoliyati, moliyalashtirish manbalari, sog'lom turmush tarzi, sport tashkilotlari.

Abstract: This article discusses the innovative development of the sports sector, its role and significance in the economy within the framework of the Concept of Socio-Economic Development of Uzbekistan until 2030. The article analyzes modern approaches to managing sports organizations, entrepreneurship and financing mechanisms, and the importance of public-private partnership.

Keywords: Sports sector, economic growth, market relations, investment, employment, sports infrastructure, tourism, sporting events, private sector, innovative development, entrepreneurship, sources of financing, healthy lifestyle, sports organizations.

O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiysi mavjud taraqqiyot modelini o'zgartirish bilan bog'liq. Bu

o'zgarishlar inson salohiyatidan samarali foydalanishga asoslangan yangi ijtimoiy rivojlanish mexanizmini joriy etish orqali innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishni nazarda tutadi. Bunda sog'lom turmush tarzini keng joriy etish ham ijtimoiy, ham iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishning strategik yo'nalishi barcha darajadagi iqtisodiy subyektlarning raqobatbardoshligini innovatsion rivojlanish va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali oshirishga qaratilgan. Bu jarayonlar sport tashkilotlarining rivojlanishida ham o'z aksini topmoqda, chunki bugungi kunda sport ham ijtimoiy, ham iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy iqtisodiyot jismoniy tarbiya va sport sohasida tadbirkorlikning rivojlanishiga keng yo'l ochib bermoqda. Buning natijasida jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari egalarining soni ortmoqda, ularning tashkiliy-huquqiy shakllari xilma-xillashmoqda. Shu bilan birga, aholiga ko'rsatilayotgan jismoniy tarbiya va sport xizmatlarining turlari ko'paymoqda va sifati yaxshilanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida sohadagi, shu jumladan sport sohasidagi boshqaruvga oid kamchiliklar ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra: "Joylarda jismoniy tarbiya va sport boshqaruvining samarali yaxlit tizimi mavjud emasligi ushbu sohada davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini lozim darajada muvofiqlashtirishni, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish va targ'ib qilishni ta'minlamayapti; sport kadrlarini, ayniqsa boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimi jismoniy tarbiya va sport boshqaruvi sohasida malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni qondirish imkonini bermayapti; jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga yo'naltirilgan moliyaviy mablag'lar sarflanishining asosliligi va haqqoniyligi ustidan nazoratning, eng avvalo, ichki nazoratning moliyaviy mablag'lardan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan va ushbu sohada suiiste'molchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan samarali mexanizmi

shakllantirilmagan”¹.

Bugungi kunda sport sohasidagi o‘zgarishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, “sport – bu faqat sog‘lom turmush tarzi” degan tushuncha o‘rniga “sport – bu ham sog‘liq, ham mamlakat imiji, ham daromadli soha” degan yangi qarash shakllanmoqda. Bu esa o‘z navbatida sport tashkilotlarini boshqarishda yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Zamonaviy sport tashkilotlari nafaqat jamiyat salomatligini ta’minlash, balki iqtisodiy foyda keltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va milliy iqtisodiyotga hissa qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining sobiq raisi Jak Rogge sport va tijorat kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlikning muhimligi haqida gapirib, “Qo‘shimcha moliyalashtirish manbalari sportning mustaqilligini ta’minlaydi”² degan fikrni ilgari surgan edi. Ushbu tushuncha zamonaviy sport sifatidagi sohaga kirishuvchi muhim elementlardan biri bo‘lib, u tadbirkorlik va sport o‘rtasidagi aloqa faqat moliyalashtirish omili bilan chegaralanmaydi, balki har tomonlama ijobiyligi ta’sir ko‘rsatadi.

Bu fikr bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Chunki zamonaviy sportni faqat davlat mablag‘lari hisobidan rivojlantrib bo‘lmaydi. Ham shundan kelib chiqib, sport tashkilotlari o‘z faoliyatini ishtiroki samarali olib borishi uchun turli moliyalashtirish manbalariga ega bo‘lishi kerak. Bunda xususiy sektor bilan hamkorlik, sponsorlik dasturlari, reklama faoliyati va boshqa tijorat loyihalari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu hamkorlik, bir tomonidan, sport tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, boshqa tomonidan esa, ularning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishni ham nazarda tutadi.

Shuningdek, zamonaviy shartlarda sohaga yangi sarmoyadorlar va tashkilotlarni jalb qilish uchun tijorat mexanizmlarini samarali shakllantirish

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.03.2018 yildagi PF-5368-soni. Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.03.2018 y., 06/18/5368/0851-soni, 13.12.2018 y., 06/18/5597/2300-soni; 23.02.2019 y., 06/19/5668/2652-soni, 27.08.2019 y., 06/19/5787/3650-soni; 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-soni; 31.10.2020 y., 06/20/6099/1450-soni.

² Президент МОК Рогге открыл круглый стол “Спорт как индустрия” // Материалы информационного агентства РИА-Новости. <https://ria.ru/sport/20111126/498474534.html>

muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Bunday hamkorlik nafaqat sport tashkilotlarining moliyaviy samaradorligini yaxshilash, balki ularning faoliyatida innovatsion metodlarni joriy etish imkonini ham yaratadi. Bundan tashqari, bu holat jamiyatda sportga qiziqish va uni rag'batlantirishga ham ijobjiy ta'sir qilmoqda. Sportni rivojlantirishning navi yetarlicha resurslar, shu jumladan, bozor iqtisodiyotidagi trendlardan foydalanishni talab qiladi.

A.Gutmanning ta'kidlashicha: "Noodatiy va keng tarqalgan musobaqa shakli sifatida zamonaviy sport taxminan 150 yil davomida, ya'ni XVIII asr boshlaridan XIX asr oxirigacha shakllangan"³. Bu davr mobaynida sport nafaqat jismoniy mashqlar majmui, balki ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida ham rivojlandi. Ushbu rivojlanish jarayonida sport sohasi murakkab tizimga aylanib, unda professional sportchilar tayyorlash, sport inshootlarini boshqarish, sport tadbirlarini tashkil etish kabi ko'plab yo'nalishlar shakllandi. Bugungi kunda esa sport global iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylangan.

Zamonaviy bozor munosabatlari sportni foyda va zarar nuqtai nazaridan baholanadigan sohaga aylantirmoqda. Bu jarayon sport sohasining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatmoqda va uning rivojlanish yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Havaskorlik sporti chipta sotish va homiylik orqali, professional sport esa to'g'ridan-to'g'ri tadbirkorlik faoliyati orqali daromad olishga qaratilgan. Bunday yondashuv sport tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va ularning faoliyatini yanada rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonunining 41-moddasiga ko'ra Jismoniy tarbiya va sportni moliyalashtirish quyidagilar hisobidan amalga oshiriladi:

"O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining mablag'lari;
tadbirkorlik faoliyati va boshqa xo'jalik faoliyatidan tushadigan
daromadlar;

³ Гуттман А. Капитализм, протестантизм и современный спорт //Логос, 2013. - №5. – С. 2-42.

aholiga pullik jismoniy tarbiya-sport va sog'lomlashtirish xizmatlari ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar;

yuridik va jismoniy shaxslarning beg'araz yordami;

jismoniy tarbiya-sport jamoat birlashmalari ishtirokchilarining a'zolik badallari;

sport turlari bo'yicha maxsus jamg'armalarning mablag'lari;

sport ramzları, timsollaridan foydalanganlik uchun korxonalar va tashkilotlarning ajratmaları;

chet el investitsiyalari mablag'lari;

xalqaro tashkilotlardan keladigan tushumlar"⁴;

Bu manbalar sport sohasining turli jihatlarini qamrab olgan bo'lib, har biri o'ziga xos ahamiyatga ega.

Davlat byudjeti mablag'lari orqali moliyalashtirish - bu eng barqaror manba bo'lib, uning doirasida davlat dasturlari, sport inshootlarini qurish va ta'mirlash, musobaqalar o'tkazish, sportchilarni tayyorlash va rag'batlantirish kabi yo'nalishlarda mablag'lar ajratilishi mumkin. Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar uzoq muddatli rejalashtirish imkonini beradi va sport sohasining asosiy ehtiyojlarini qoplashga qaratilgan. Bu manba orqali, ayniqsa, bolalar va yoshlar sportini rivojlantirish, sport inshootlarini modernizatsiya qilish va milliy terma jamoalarni tayyorlash kabi ustuvor yo'nalishlar moliyalashtiriladi.

Tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar keng qamrovli bo'lib, unga sport inshootlarini ijaraga berish, reklama faoliyati, sport anjomlari va kiyimlari savdosi, sport-sog'lomlashtirish markazlari faoliyati, sport tadbirlaridan tushadigan daromadlar kiradi. Bu yo'nalish sport tashkilotlariga moliyaviy mustaqillikni ta'minlash imkonini beradi. Tadbirkorlik faoliyati doirasida sport tashkilotlari innovatsion yondashuvlarni joriy etish, yangi xizmat turlarini ishlab chiqish va bozor talablariga mos ravishda o'z faoliyatini takomillashtirish

⁴ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 04.09.2015 yildagi O'RQ-394-son. Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son, 18.05.2022 y., 03/22/770/0424-son; 04.11.2022 y., 03/22/800/0990-son; 21.01.2023 y., 03/23/815/0044-son; 09.09.2024 y., 03/24/957/0689-son

imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Pullik xizmatlar ko'rsatish orqali moliyalashtirish zamonaviy sport industriyasining muhim qismiga aylangan. Bunga individual va guruh mashg'ulotlari, fitnes xizmatlari, sport zallaridan foydalanish, murabbiylik xizmatlari, sport-sog'lomlashtirish dasturlari kiradi. Bu yo'nalish doimiy ravishda rivojlanib bormoqda va yangi xizmat turlari bilan boyib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar va yangi yondashuvlar asosida pullik xizmatlar sifati va samaradorligi oshib bormoqda, bu esa o'z navbatida daromadlarning ortishiga olib kelmoqda.

Yuridik va jismoniy shaxslarning beg'araz yordami - bu homiylik va xayriya mablag'lari bo'lib, sport tashkilotlari uchun qo'shimcha moliyaviy manba vazifasini o'taydi. Bu orqali yirik korporatsiyalar, biznes vakillari va badavlat shaxslar sportni rivojlantirishga hissa qo'shishlari mumkin. Homiylik va xayriya mablag'lari, ayniqsa, yosh sportchilarni qo'llab-quvvatlash, sport anjomlari bilan ta'minlash va maxsus loyihalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maxsus jamg'armalar mablag'lari esa muayyan sport turlarini rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni qo'llab-quvvatlash va maqsadli dasturlarni amalga oshirish uchun yo'naltirilishi mumkin. Bu jamg'armalar ma'lum bir sport turiga ixtisoslashgan bo'lib, o'sha yo'nalishdagi muammolarni hal etish va rivojlanish dasturlarini amalga oshirishga qaratilgan.

Bu moliyalashtirish manbalarining har biri o'zining afzallikkleri va imkoniyatlariga ega bo'lib, ularning samarali kombinatsiyasi sport sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi. Manbalarning xilma-xilligi sport tashkilotlariga moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, bu manbalarning to'g'ri va oqilona taqsimlanishi sport sohasining turli yo'nalishlarini mutanosib rivojlantirish imkonini beradi.

Sport, bilim kabi, jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanib, iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirgan. Bu jarayon uzlucksiz davom

etib, har bir tarixiy davrda o'zining noyob xususiyatlariga ega bo'lgan. Zamonaviy jamiyatda sportning tijoratlashuvi asosiy tendensiyaga aylandi va bu holat sport industriyasining global miqyosda rivojlanishiga turki bo'lmoqda. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, sport insoniyat tarixida doimo mavjud bo'lgan, ammo faqat kapitalistik bosqichda u mustaqil bozor qiymatiga ega bo'ldi. Bu esa sportning nafaqat jismoniy madaniyat, balki iqtisodiy faoliyat sifatida ham rivojlanishiga olib keldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bozor munosabatlari sharoitida sport mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Zamonaviy sharoitda sport sohasi iqtisodiyotning alohida segmenti sifatida shakllanib, uning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Sport nafaqat sog'lom turmush tarzini shakllantirish vositasi, balki iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu borada sport industriyasi mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishning samarali mexanizmiga aylangan. Sport tadbirlaridan tushadigan daromadlar, sport inshootlari faoliyatidan olinadigan foyda, sport tovarlari va xizmatlari savdosi, sport turizmi orqali valyuta tushumlari hamda soliq tushumlarining ortishi kabi to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy samaralar mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo'shmoqda. Bu daromadlar davlat byudjetini to'ldirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'yamoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.03.2018 yildagi PF-5368-son. Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.03.2018 y., 06/18/5368/0851-son, 13.12.2018 y., 06/18/5597/2300-son; 23.02.2019 y., 06/19/5668/2652-son, 27.08.2019 y., 06/19/5787/3650-son; 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son; 31.10.2020 y., 06/20/6099/1450-son.

2. Президент МОК Рогге открыл круглый стол "Спорт как индустрия"

// Материалы информационного агентства РИА-Новости.

<https://ria.ru/sport/20111126/498474534.html>

3. Гуттман А. Капитализм, протестантизм и современный спорт //Логос, 2013. - №5. – С. 2-42.

4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 04.09.2015 yildagi O'RQ-394-son. Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son, 18.05.2022 y., 03/22/770/0424-son; 04.11.2022 y., 03/22/800/0990-son; 21.01.2023 y., 03/23/815/0044-son; 09.09.2024 y., 03/24/957/0689-son